

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BUDJET TIZIMI VA UNDA MAHALLIY BUDJETLARNING O'RNNINI KENGAYTIRISH MASALALARI

Chorshanbiyev Umrzoq Qaynarovich

Guliston davlat universiteti katta o'qituvchisi

Boboqulov Olmos Yusup o'g'li,

Guliston davlat universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10441367>

*Annotatsiya.* Davlat budjeti salohiyatini oshirish ko'p jihatdan mahalliy budgetlarning daromad bazasini kengaytirish, hududlarni o'zini o'zi ta'minlash qobiliyatini rivojlantirishga bog'liq. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada mahalliy budgetlarning o'rnnini kengaytirish masalalari muhokama qilinadi.

*Kalit so'zlar:* moliya, davlat moliyasi, budjet, davlat budjeti, mahalliy budgetlar, budjet jarayoni, budjet daromadlari, budjet xarajatlari, budjet taqchilligi.

### BUDGET SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND ISSUES OF EXPANDING THE ROLE OF LOCAL BUDGETS IN IT

*Abstract.* Increasing the capacity of the state budget largely depends on expanding the revenue base of local budgets and developing the self-sufficiency of regions. Based on this, this article discusses the issues of expanding the role of local budgets.

**Key words:** finance, public finance, budget, state budget, local budgets, budget process, budget revenues, budget expenditures, budget deficit.

### БЮДЖЕТНАЯ СИСТЕМА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ РОЛИ МЕСТНЫХ БЮДЖЕТОВ В НЕЙ

*Аннотация.* Повышение емкости государственного бюджета во многом зависит от расширения доходной базы местных бюджетов и развития самообеспеченности регионов. Исходя из этого, в данной статье рассматриваются вопросы расширения роли местных бюджетов.

**Ключевые слова:** финансы, государственные финансы, бюджет, государственный бюджет, местные бюджеты, бюджетный процесс, доходы бюджета, расходы бюджета, дефицит бюджета.

Moliya tizimining asosiy bo'g'ini hisoblangan davlat moliyasi davlatni iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarining bajarilishida, davlat mablag'larini qayta taqsimlash, moliya, transport va aloqa, shuningdek ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Amalga oshiralayotgan iqtisodiy islohotlar O'zbekistondagi budjet jarayonini, ya'ni budjet loyihasini ishlab chiqish, muhokama qilish, qabul qilish, ijro etish va ijrosi yuzasidan hisobottayyorlashgacha bo'lgan chora-tadbirlarni yanada takomillashtirish, budjet tomonidan bir yildan ortiq davom etadigan davlat dasturlarini moliyalashtirilishini ta'minlashni yaxshilash, davlat dasturlarini bajarish uchun kerak bo'lgan moliyaviy resurslar bilan bog'lash va budjet jarayonini oshkoraliq darajasini oshirishni taqozo etmoqda. Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksiga asosan budjet buyurtmasida kelgusi uch yil uchun budjet mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan xarajatlar budjet tasnifiga muvofiq aks ettiriladi.

Byudjet tizimi muayyan mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlari, jumladan, ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy va boshqa xususiyatlarining butun majmui asosida shakllanadi. Byudjet tizimi bu turli darajadagi budgetlar va budget mablag‘lari oluvchilar yig‘indisini, budgetlarni tashkil etishni va tuzish tamoyillarini ifodalaydigan, budget jarayonida ular o‘rtasida, shuningdek budgetlar hamda budget mablag‘lari oluvchilar o‘rtasida vujudga keladigan o‘zaro munosabatlar majmuidir.

Ko‘pchilik hollarda, soddaroq tarzda, budget tizimi deyilganda, mamlakatdagi mavjud budgetlar to‘plami (majmui) tushuniladi. Demak, budget tizimi - bu iqtisodiy munosabatlarga, davlat tuzilishiga va qonun normalariga asoslangan, davlat, ma’muriy-hududiy tuzilishlarning, budget munosabatlarida mustaqil bo‘lgan davlat tashkilotlari va fondlarining majmuidir.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining “Byudjet tizimi tushunchasi va tamoyillari” deb nomlanuvchi 2-bobi 6-moddasida “Byudjet tizimi barcha darajadagi budgetlar, davlat maqsadli jamg‘armalari budgetlari va budget tashkilotlarining budgetdan tashqari jamg‘armalari, budget tizimi budgetlarini tuzish va tashkil etish tamoyillari, ular o‘rtasida budget jarayoni mobaynida yuzaga keladigan o‘zaro munosabatlar yig‘indisini o‘zida ifodalaydi”-deb, tushuntirish berilgan.

Byudjet tizimi mamlakat budget tuzilishining tarkibiy qismi bo‘lib, uning ma’lum bir qismini o‘zida ifoda etadi. Shu ma’noda, budget tizimi mamlakat budgetining o‘zaro bog‘liqlikda bo‘lgan bo‘g‘inlarining o‘zaro yig‘indisidan iboratdir. Mamlakatning budget tizimi jamiyatning siyosiy tuzilishiga, davlatning iqtisodiy tizimiga va uning ma’muriy-hududiy bo‘linishiga bevosita bog‘liq bo‘ladi. Mamlakatning budget tizimi ikki yoki uch bo‘g‘inli bo‘lishi mumkin. Unitar davlatlar deb yuritiladigan mamlakatlarda budget tizimi ikki bo‘g‘indan (markaziy va mahalliy budgetlar), federativ davlatlar deb yuritiladigan mamlakatlarda esa uch bo‘g‘indan (markaziy budget, federatsiya a’zolari budgetlari va mahalliy budgetlar) iborat bo‘lishi mumkin.

Har bir mamlakatning budget tizimi ma’lum bir tamoyil (tamoyil)larga tayanadi. O‘zbekiston Respublikasi budget tizimiga xos bo‘lgan tamoyillar esa quyidagilardan iborat:

**Byudjet tizimining yagonaligi tamoyili** budget hujjatlari va budget hisobotlarining shakllari, budget tasnifi yagona bo‘lishi hamda budget tizimi budgetlarining daromadlari va xarajatlarini shakllantirish hamda ijro etish, budget hisobini yuritish va budget hisobotini tuzishning yagona tartibini ko‘zda tutadi Masalan, O‘zbekiston Respublikasining barcha viloyat, tuman, shaharlarining budgetlari bir xil, yagona belgilangan tartib asosida shakllantirilib, yagona me’yorlar asosida ulardan xarajatlar amalga oshiriladi. Qolaversa, mamlakat hududidagi barcha budgetdan moliyalashtiriladigan tashkilot va muassasalar hududiy joylashuvidan qat’iy nazar bir xil budget qonunchiliga rioya etadi.

**Byudjet tizimining O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilishiga muvofiqligi tamoyili** esa budget tizimi O‘zbekiston Respublikasining ma’muriy-hududiy tuzilishiga muvofiq bo‘lishi lozimligini ifodalaydi. Ya’ni, 14 ta yirik ma’muriy hududlar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahri) hamda mazkur hududlar tarkibiga kiruvchi tuman va shaharlar soniga teng jami 220 ga yaqin mahalliy budgetlar mavjud.

**Byudjet tizimi budgetlarining balansliligi va o‘zaro bog‘liqligi tamoyili** budget tizimi budgetlarida nazarda tutilgan xarajatlar hajmi ularning daromadlari va taqchillikni qoplash manbalari yig‘indisining hajmiga muvofiq bo‘lishini, hamda budget tizimi budgetlarini tuzish va

ijro etishda budgetlarning mablag‘lari mazkur budgetlarning balanslilagini ta’minlash uchun ular o‘rtasida qayta taqsimlanishi mumkinligini anglatadi.

Misol uchun, biror viloyat budgetining, yoki tuman budgetining daromadlari miqdori xarajatlari miqdoriga teng bo‘lishi lozim. Agar xarajatlarni qoplashga etarli daromadlar bo‘lmasa, viloyat budgetiga respublika budgetidan, tuman budgetiga esa o‘zi bo‘ysunuvchi viloyatning budgetidan turli xil moliyaviy yordamlar(budget transfertlari) hisobiga daromadalar xarajatlarni qoplashga etarli miqdorda shakllantiriladi, ya’ni balanslashtiriladi. Byudjet jarayonida tuman budgetlari faqatgina o‘zлari bo‘ysunuvchi viloyat budgeti bilan, viloyatlar budgetlari esa faqat respublika budgeti bilan o‘zaro bog‘liqda bo‘ladi.

Byudjet tizimi budgetlari daromadlarini prognoz qilish va xarajatlarini rejalashtirish tamoyili budget tizimi budgetlarini tuzishda budget tasnifiga muvofiq, daromadlar ularning aniq manbalari bo‘yicha prognoz qilinishini, xarajatlar esa yo‘nalishlar bo‘yicha rejalashtirilishini bildiradi.

Misol uchun, biror viloyat budgetini tuzishda mazkur budgetga yil davomida tushishi ko‘zda tutilgan daromadlar miqdori va ularning manbalari, ya’ni soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar, shuningdek soliq bo‘Imagan to‘lovlar miqdori oldindan belgilangan tartib va me’yorlar asosida prognoz qilinadi. Ya’ni, viloyat budgetining daromadi yil davomida qancha miqdorda bo‘lishi, har bir soliq turidan, aytaylik mol-mulk solig‘i yoki yer solig‘idan yil davomida qancha miqdorda daromad tushishi ma’lum normativ va metodlar asosida oldindan puxta hisob-kitob qilinib, prognozlashtiriladi.

**Byudjet tizimi budgetlari mablag‘laridan foydalanishning aniq yo‘naltirilganligi va maqsadlilik xususiyati tamoyili** esa budget tizimi budgetlarining mablag‘lari muayyan budget tashkilotlari va budget mablag‘lari oluvchilarga ushbu mablag‘lardan belgilangan maqsadlarni moliyalashtirishda foydalanish uchungina ajratilishini nazarda tutadi.

Misol uchun, biror maktab ish haqi uchun ajratilgan mablag‘lardan kapital ta’mirlash yoki kommunal to‘lovlardan qarzlarini to‘lash uchun foydalanishi mumkin emas.

**Byudjet tizimi budgetlarining mustaqilligi tamoyili** budget tizimining turli darajadagi budgetlari mustaqil ekanligini bildiradi.

Ya’ni, viloyatlar budgetlari yoki tuman budgetlari amaldagi qonunchilik doirasida o‘zidan yuqori turuvchi budget bo‘g‘iniga bog‘liq bo‘Imagan holda daromadlarni shakllantirish yoki xarajatlarni amalga oshirishi mumkin.

Byudjet tizimi budgetlari mablag‘laridan foydalanishning natijadorligi tamoyili budget jarayoni ishtirokchilari budget tizimi budgetlarini tuzish va ijro etishda o‘zlariga berilgan vakolatlar doirasida budget tizimi budgetlarining belgilangan hajmdagi mablag‘laridan foydalangan holda natijaga erishish zaruriyatini ifodalaydi.

Kassaning yagonaligi tamoyili esa budget tizimi budgetlarining barcha daromadlari Yagona g‘azna hisobvarag‘iga kiritilishini va ularning xarajatlarini to‘lash ushbu hisobvaraqdan amalga oshirilishini anglatadi.

Ma’lumki, 2007 yildan boshlab respublikamizning barcha hududlaridagi budget tashkilotlari va muassasalari to‘liq g‘aznachilik tizimiga o‘tkazildi. Viloyat, tuman budgeti va ulardan moliyalashtiriladigan barcha budget tashkilotlari va muassasalarining joylashgan joyidan yoki hisob raqami qaysi bankda bo‘lishidan qat’iy nazar ularning daromadlari Yagona g‘azna


hisobvarag‘iga kiritiladi(jamlanadi) va o‘z navbatida xarajatlarni amalga oshirishda ham g‘aznachilik tizimi orqali mablag‘dan foydalanish mumkin.

**Byudjet jarayoni ishtirokchilarining javobgarligi tamoyili** budget jarayonining har bir ishtirokchisi budget jarayonining har bir bosqichida o‘z harakatlari uchun javobgar bo‘lishini nazarda tutadi.

Ma’lumki, budget jarayonida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, davlat moliyaviy nazorat organlari, budget tashkilotlari va budget mablag‘lari oluvchilar ishtirok etadilar. Mazkur sub‘ektlarning har biri budget jarayonidagi o‘z harakatlari uchun javobgar bo‘ladilar.

**Ochiqlik tamoyili** davlat budgetini va davlat maqsadli jamg‘armalari budgetlarini ko‘rib chiqish hamda qabul qilish tartib-taomillarining jamiyat va ommaviy axborot vositalari uchun ochiqligini bildiradi.

Qolaversa, tasdiqlangan davlat budgeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budgetlari daromadlari va xarajatlarining miqdori, tarkibi to‘g‘risidagi axborot ommaviy axborot vositalarida (gazeta, jurnal, byuleten, hamda maxsus internet saytlari) va O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy veb-saytida e’lon qilinib boriladi. Shuningdek, davlat budgeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budgetlari choraklik, yarim yillik, 9 oylik va yillik ijrosining borishi to‘g‘risidagi axborot ommaviy axborot vositalarida chop etiladi.



**1-diagramma. 2020-2023 yillarda davlat budgeti daromadlari dinamikasi**

Davlat budgeti va davlat maqsadli jamg‘armalari budgetlari daomadlari va xarajatlarining prognozi va ularning choraklik va yillik ijrosi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining rasmiy veb-sayti ([www.imv.uz](http://www.imv.uz))da doimiy joylashtirilmoqda va yangilab borilmoqda (1-diagramma, 1-jadval). Xususan, Iqtisodiyot va moliya vazirligi ma’lumotlariga ko‘ra, Davlat budgeti daromadlari 2022 yilda 202 trln so‘mni (YaIMga nisbatan 22,7 %) tashkil etib, 2021 yilga nisbatan 37,2 trln so‘mga yoki 22,6%ga oshgan.

Hisobot yilida Davlat budjeti daromadlarining YaIMdagi ulushi 22,7%ni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2021 yilga nisbatan solishtirilganda 0,3%ga va 2020 yilga nisbatan 0,6%ga oshgan. Hisobot yilida Davlat budjeti tarkibidagi Soliq qo'mitasi ma'murchiligidagi tushumlar 148,4 trln so'mni (jami Davlat budjeti daromadlariga nisbatan 73,4%), Bojxona qo'mitasi bo'yicha tushumlar 46,0 trln so'mni (22,8%) hamda boshqa daromadlar va soliq bo'limgan tushumlar 7,6 trln so'mni (3,8%) (qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha qaytarish (qoplab berish) (19,3 trln so'm) va fuqarolarga xarid summasidan 1% ("kesh-bek") qaytarishni (0,8 trln so'm) hisobga olgan holda ) tashkil qilgan. Byudjet tuzilishi (tuzilmasi) - davlat budgetini tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar majmui (uning ichki bo'linmalari tarkibi va tuzilmasi, ulardan foydalanish sohalarining funktsional cheklanganligi, o'zaro bo'ysunuvchanligi, o'zaro aloqadorligi va ta'sirchanligi hamda huquqiy tomonlarini inobatga olgan holda)ni bildiradi. Har bir mamlakatning budget tuzilmasi uning milliy- davlat yoki ma'muriy-hududiy tuzilishi bilan belgilanadi.

### 1-jadval

#### O'zbekiston Respublikasi davlat budgetining 2020-2022 yillardagi ijrosi

	2020 yil		2021 yil		2022 yil		Tushum o'sishi (2022-2020 yil)	Tushum o'sishi (2022-2021 yil)		
	summa	jamiga nisbatan %da	Summa	jamiga nisbatan %da	summa	jamiga nisbatan %da	summa	%da	summa	%da
Davlat budjeti daromadlari	132,93 8		164,79 9		202,04 3		69,105	152,0	37,243	122,6
Bevosita soliqlar-jami	45,207	34,0	58,930	35,8	64,447	31,9	19,240	142,6	5,517	109,4
Bilvosita soliqlar-jami	46,428	34,9	56,290	34,2	71,390	35,3	24,962	153,8	15,100	126,8
Resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i	21,257	16,0	23,036	14,0	23,913	11,8	2,656	112,5	876	103,8
Boshqa daromadlar va soliq bo'limgan tushumlar	20,046	15,1	26,542	16,1	42,293	20,9	22,247	211,0	15,751	159,3

Byudjet tuzilishi davlat budjeti va mamlakat budget tizimining tashkil etilishini, uning alohida bo'g'inlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, budget tizimiga kiruvchi budgetlarning faoliyat yuritishini, ularning huquqiy asoslarini, budgetlarning tarkibi va tuzilishini, budget mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartib-tamoyillarini belgilaydi.

Mamlakatlarning davlat tuzilishidagi, hokimiyat turli darajalarining budget huquqlaridagi farqlar turli shakldagi va modeldag'i budget tuzilishlari mavjudligini belgilaydi.

Jahon amaliyotida budget tuzilishining markazlashtirilgan, markazlashtirishdan chikarilgan va aralash modellari mavjud. Markazlashtirilgan model barcha budgetlar yagona davlat budgetida markazlashtirilishi bilan tavsiflanadi, bunda har bir yuqori budgetga boshqaruvchilik roli biriktirilgan bo'ladi (Frantsiya, Italiya, Qozog'iston, O'zbekiston). Markazlashtirishdan

chiqarilgan model budjet tizimi markaziy va mahalliy budjetlarining erkinligi bilan tavsiflanadi, bunda ushbu budjetlarning har biri ularning xarajatlarini ta'minlovchi o'z daromadlar manbalariga ega bo'ladi (AQSh, GFR).


Aralash model markaziy budjetga mahalliy budjetlarni tartibga solish roli biriktirilishi bilan tavsiflanadi, bunda ushbu budjetlar-ning har biri ularning xarajatlarini ta'minlovchi o'z daromadlar manbalariga ega bo'ladi (Rossiya Federatsiyasi).

Amaldagi tartibga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi budjeti: davlat budjeti, davlat maqsadli jamg'armalari va budget tashkilotlarining budjetdan tashqari jamg'armalaridan tashkil topadi.

O'zbekiston Respublikasi budget tuzilmasining bo'g'lnlari ham o'z navbatida tarkibiy tuzilishga ega.

Davlat budjeti quyidagi darajadagi budjetlardan iborat:

- 1) O'zbekiston Respublikasining respublika budjeti;
- 2) Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budjetlari.



### 1-rasm. O'zbekiston Respublikasi davlat budgetining tarkibiy tuzilishi

Respublika budjeti - davlat budgetining umumdavlat ahamiyatiga molik tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladigan qismi bo'lib, unda daromadlar manbalarini va ularidan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfining yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Mahalliy budget - davlat budgetining tegishli viloyat, tuman, shahar pul mablag'larini jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda ma'lum ma'muriy birlikning daromadlar manbalarini va ularidan tushumlar miqdori, shuningdek, moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfining yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining budjeti – davlat budgetining Qoraqalpog'iston Respublikasi pul mablag'lari jamg'armasini tashkil etuvchi bir qismi bo'lib, unda mazkur hududning daromadlar manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfining yo'nalishlari va miqdori aks ettiriladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti Qoraqalpog'iston Respubli-kasining respublika budgetini hamda respublikaga (Qoraqalpog'istonga) bo'ysunuvchi tumanlar va shaharlar budgetlarini o'z ichiga oladi.

Viloyatlar mahalliy budgetlari tuzilmasiga viloyat budjeti, viloyat tarkibidagi tumanlar va shaharlarning budgetlari kiradi. Tumanga bo'ysunadigan shaharlari bo'lgan tumanning budgeti esa tuman budgetini va tuman bo'ysunuvidagi shaharlар budgetlarini o'z ichiga oladi. Toshkent shahar mahalliy budgeti tuzilmasi shahar budjeti va shahar tarkibiga kiruvchi tumanlarning budgetlaridan iborat.

Mahalliy budgetlar - Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti, viloyatlar budgetlari, Toshkent shahar budjeti, hamda mazkur budgetlarga kiruvchi quyi (shahar, tuman) budgetlarni o'z ichiga oladi.

Ularning daromadlari va xarajatlari tarkibi, budget jarayoni va budget huquqi qonun bilan belgilangan. Mahalliy budgetlar O'zbekiston Respublikasi davlat budgetida muhim tarkibiy qismni tashkil etadi va mahalliy hukumat organlarining faoliyat ko'rsatishlarida moliyaviy manba bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, mahalliy budget asosiy moliyaviy reja sifatida tegishli hududning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining barcha sohalari va yo'nalishlarini to'liq qamrab oladi.

Yuqoridagilar bilan birgalikda, mahalliy budgetlar umumdavlat iqtisodiy va ijtimoiy vazifalarini amalga oshirishda, birinchi navbatda davlat mablag'larini taqsimlash va ijtimoiy infratuzilmani rivoj-lantirishda muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatda yaratilgan YaIMni taqsimlash va aholiga etkazish asosan budget tizimi orqali amalga oshiradi. Bunda xalq ta'limi, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, uy-joy kommunal xizmat sohasi bilan bog'liq asosiy xarajatlar mahalliy budgetlar hisobidan amalga oshiriladi.

Davlat tomonidan ijtimoiy himoya bilan bog'liq siyosatni amalga oshirish katta miqdordagi moddiy va moliyaviy resurslarni talab qiladi va bu muhim vazifalar mahalliy hokimiyat organlariga yuklatilgan. Aholini ijtimoiy himoya qilish bilan bog'liq chora-tadbirlarni moliyalashtirish ham asosan mahalliy budgetlar hisobidan amalga oshiriladi. Umumdavlat pul mablag'larini budget bo'g'lnlari o'rtaida taqsimlanishining asosini hududiy budgetlar mustaqilligi, ularni davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvatlanishi, ular daromadlarini hududiy manbalar hisobidan shakllanish tamoyillari tashkil etadi. Ushbu tamoyillardan kelib chiqqan holda, mahalliy budgetlarning daromadlari o'z daromadlari va boshqariladigan manbalar hisobidagi daromadlardan shakllanadi.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi budget kodeksi, <https://lex.uz/docs/2304138>
2. O'zbekiston Respublikasi budget tizimi: Darslik / Z.X.Srojiddinova. –Toshkent, 2010. – 500 b.

3. Moliya va soliqlar: oliy ta'limning 60310100 - "Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)", 60411200 - "Menejment (tarmoqlar va sohalar bo'yicha)" bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun darslik / B.A.Xasanov, A.A.Xashimov, A.B.Muxametov, A. A. Abduvoxidov, J.M.O'razmatov, G'.B.Akramov, M.A.Narbayeva, D.B.Eshpulatov // prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: "Iqtisodiyot dunyosi", 2022. – 774 b.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarining 2022 yildagi ijrosi bo'yicha dastlabki natijalar, <https://mf.uz/>
5. Abduvoxidov A., Qodirova D., Obilov M. О 'ZBEKISTONDA MAHALLIY BYUDJETLARNING DAROMADLAR BAZASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 4-12.
6. Нурмухаммедова М. Х. и др. ПАНДЕМИЯ ШАРОИТИДА БЮДЖЕТ-СОЛИК СИЁСАТИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ // E Conference Zone. – 2022. – С. 6-10.